

**TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISHIDA ORTDA
QOLISH MUAMMOSI**

Madaminjonov Xojiakbar Saydamin o'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti magistranti.*

Annotatsiya: *Maqolada bugungi kun ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirishidagi muammolar, ularning sababi, tashqi va ichki omillar o'rganildi. O'quvchilarning yosh davri xususiyatlariga alohida e'tibor qaratildi. Mavjud muammoni bartaraf qilish yuzasidan pedagog hodimlar hamda ota-onalarga kerakli tavsiya va ko'rsatmalar berib o'tildi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, pedagogik, psixologik, o'smirlik, individual, omil, ota-ona*

**THE PROBLEM OF FALLING BEHIND IN STUDENTS' LEARNING IN THE
EDUCATIONAL PROCESS**

Abstract: *In the article, the problems of students' learning in today's educational process, their causes, external and internal factors were studied. Particular attention was paid to the characteristics of the age of the students. Necessary recommendations and instructions were given to pedagogues and parents in order to eliminate the existing problem.*

Key words: *education, pedagogic, psychologic, teenager, individual, parents.*

KIRISH

Kuzatishlar tayanib aytishimiz mumkin-ki, boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchida o'yin faoliyati tugatilib, uning o'rnini o'qish faoliyati egallaydi. O'qib-o'rganish o'quvchining vazifasi hamda burchi bo'lib qoladi. Bilimlar, umuman olganda o'quv faoliyati bolaning saviyasini o'stiradi, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, irodasi va sezgilarining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarda biror fanga, darsga nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Ular ta'lim olishni burch ekanligini anglab yetadilar. Dars vaqtida o'quvchi faoliyatiga qo'yilgan yuqori baho o'quvchilarda ruhiy tetiklik, shodlik, iftixor kabi hissiy kechinmalarni shakllantiradi. Ammo o'quvchilar orasida fanlardan orqada qolish, o'zlashtirishi past baholanadiganlari ham uchrab turadi[1]. Ta'lim sohasida o'quvchilarning o'zlashtirishi va buni to'g'ri baholash yuzasidan bir qator ilmiy ishlar olib borilgan va davom etmoqda. Xususan, tarbiyasi qiyin, xulqida og'ishish bo'lgan o'quvchilarga qaraganda o'zlashtirishda ortda qoluvchi, o'qib biror nimani tushinishi qiyin bo'lgan o'quvchi yoshlarda psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni olib borish nisbatan osonroq kechadi. Buning sababi shuki – tarbiyasi qiyin bolalar bilan odatda faqat tarbiyaviy ishlar olib boriladi, o'zlashtirishida muammosi bo'lganlar bilan esa boshlang'ich sinfdan boshlab shug'ullanish talab qilinadi. Ya'ni

boshlang'ich sinfdaligida turli xil didaktik va rolli o'yinlar, so'zlashish qobiliyati va so'z boyligini oshirishga qaratilgan va eshitish, diqqat sohasi korreksiyasi bo'yicha tizimli ishlar olib boriladi. O'zlashtirishda ortda qolish pedagogika va psixologiya sohalarining eng asosiy muammolaridan biridir. Turli adabiyotlarning tekshiruv natijalari va psixologlarning fikriga ko'ra hozirgi zamonaviy aktiv va to'laqonli ijtimoiy hayotimiz bolalarni nafaqat yaxshi o'qishiga balki fiziologik hamda psixologik jihatdan zaif bo'lib qolishiga sabab bo'lmoqda[2].

Asosiy qism. Umuman olib qaralganda, ijtimoiy hayotimiz global bo'lgani sari yosh avlodning rivojlanishi va o'zlashtirishidagi muammo hamda kamchiliklari ham kundan kun dolzarblashib bormoqda. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning past o'zlashtirishi va ba'zi o'rinlarda ortda qolib ketishiga sabab bo'luvchi omillar ikki qismga :

- Tashqi – ya'ni oiladagi muhit, pedagogik mahorat va boshqalar.
- Ichki – individual psixologik xususiyatlar.

Bolalar kattalarga nisbatan xulq-atvoridagi ijobiy va salbiy munosabatning paydo bo'lishi, negativizm singari nohush xulq-atvor alomatlari o'z-o'zidan kelib chiqib, bevosita jinsiy yetilish tufayli poydo bo'ladigan belgilar bo'lmay, balki ular bilvosita ta'sir ko'rsatadigan bola yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali, uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi o'rni munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Ushbu keltirib o'tilgan ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan yoshlarning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin. Bunda esa pedagog hodimlarning o'rni kattadir. O'smirlik davriga kelib tashqi ta'sirlarga va xissiyotlarga beriluvchanlik shakllana boradi. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik kabi psixologik sifatlar ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smir o'quvchilarda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmaydi. Shuning uchun ham ular ota-onalarining, atrofdagi kattalarning va ustozlarining to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Juda ko'p o'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. Bu vaziyatda chekuvchi, ichuvchi singari yangi rolda o'zini normal, qulay his qiladi. Bunday holatlarga tushgan o'smir juda tashvishga tushadi va unda krizis holati yuzaga keladi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi psixikasidagi o'zgarishlariga ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi [3]. Ana shu munosabatlar ba'zan ijobiy, ba'zan esa salbiy ta'sir etadi. Shulardan o'smirlik davridagi bolalarga og'ir iztirob, noqobil oila, spirtli ichimliklarni iste'mol qiluvchi ota-onalar, shavqatsiz kaltaklash, tabiiy ofat, kambag'allik, oiladardagi ajrim xolatlari kabilar ularni psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Bu borada o'smirlarning ota-onasi, ustozlari, kattalar bilan qiladigan muloqoti asosan ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilganligi sababli qo'llab - quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Yuqoridagi keltirib o'tilgan tashqi

omillar va qondirilmagan ehtiyojlar sabab o'quvchi yoshlarning o'zlashtirishi va rivojlanishida ortda qolish holatlari kuzatiladi.

Shuningdek, ichki omillarni ham inobatga olish zarur. Ya'ni bola rivojlanishi davomida katta o'zgarishlar uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smir yoshi davridagi maktab o'quvchilarida o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'ri kelmayotganligi o'smirlarni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Psixolog S. Xoll bu davrni "bo'ron va hujumlar davri" deb atagan. Haxsiy rivojlanishda ko'plab o'zgarishlar kuzatiladi va shaxsiy beqarorlikni asosiy xususiyat deb hisoblash mumkin, deydi. Freyd esa o'smirlarning o'ziga xos individual xususiyatlarini qayd etadi:

- birinchidan, o'smirlar xudbin, o'zlarini "Olamning markazi" deb bilishadi va shu bilan birga fidoyilik hissi ham mavjud;

- ikkinchidan, ular ehtirosli sevgi munosabatlariga kirishadilar, lekin ular boshlanganidek, ularni birdaniga tugatishi mumkin;

- uchinchidan, ular tezda jamiyat hayotiga aralashib qolishadi va shu bilan birga yolg'izlik ishtiyoqini egallab olishadi;

- to'rtinchidan, ular rahbarga ko'r-ko'rona bo'ysunadilar va har qanday hokimiyatga qarshi darxol isyon ko'taradilar [4].

Ba'zida ularning atrofdagi odamlarga nisbatan xatti-harakatlari qo'pol va takabbur, shu bilan birga, ularning o'zlari ham juda zaifdir. Ularning kayfiyati optimistikdan pessimistikka tez o'zgaradi. Ba'zan ular ishtiyoq bilan ishlaydi, ba'zan esa ular juda letargik va sekinlashadi. O'smirlik davridagi asosiy qiyinchiliklar tananing fiziologik tuzilishi bilan ham bog'liqdir. Ushbu individual xususiyatlar o'quvchi shaxsida aniq va ravshan namoyon bo'ladi va bunday paytda pedagogning mahoratiga ehtiyoj seziladi. Pedagog o'z faoliyatida kamchilik yoki xatolikka yo'l qo'ysa, o'quvchi o'zlashtirishida ortda qolish holatiga ko'ra tashqi omilga aylanadi. Bu esa albatta jiddiy muammodir. Xususan, muammoni yechishga qaratilgan chora tadbirlar asosida ham nafaqat ota-ona, balki pedagoglarning ham o'rni beqiyosdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyati doimiy suratda o'zgarib, yangilanib turadi. Buning sabablari yuqorida batafsil ko'rib chiqildi. Mazkur salbiy holatlarda pedagoglar va ota-ona hamkorlikda psixokorreksion ishlar olib borishi va individual tarzda o'quvchi bilan turli rivojlantiruvchi mashqlar qilishi o'quvchi o'zlashtirish malakasini ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi tashqi va ichki omillarga bee'tibor bo'lmaslik, imkon qadar vaqtida aniqlab kerakli choralarni ko'rish ota-ona hamda pedagoglardan talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karomatova Dilfuza Sadinovna, and Qilichova Mohichexra Jumaqul Qizi. "BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZLASHTIRISHI PAST O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKALARI" Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, vol. 1, no. 4, 2022.
2. Акишева Айсулу Кенесовна, and Караменди Айгерим Мараткызы. "ПРИЧИНЫ ОТСТАВАНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В ОСВОЕНИИ ШКОЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ" Наука и реальность/Science & Reality, no. 2 (6), 2021.
3. Olimov L.Ya. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, "Durdona". 2019.
4. Тахохов В.А. Zamonaviy "qiyin o'smirlar" ning psixologik va pedagogik xususiyatlari // Togliatti davlat universitetining fan vektori. Seriya: Pedagogika, Psixologiya. – Piter: 2018. No 3